



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2024 - yil 8 - fevral

VI-62-14-5-74-K/24

Nurota tumani hokimligi

Tumanda jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 23-, 25- bandlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning Qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 2-ilovasiga asosan Nurota tumanida jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyasining tarkibi yuzasidan tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo'limi S.Haydarovning 01-38/78-son xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yilda tumanda jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (S.Haydarov) tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq Byudjet" axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25 sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish halq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Ermakov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Fayziyev

Xalq deputatlari Nurota tuman
Kengashining
2024-yil 8-fevraldagi
VI-62-14-5-74-K/24-son
qaroriga
1-ilova

**Nurota tumanida jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda
ijrosini monitoring qilish bo'yicha ishchi komissiyasining tarkibi**

T/r	F.I.O	-	Ish joyi va lavozimi
1	A.Fayziyev	-	Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi, <i>ishchi komissiya rahbari</i>
2	F.Ermakov	-	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati
3	A.Haydarov	-	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati
4	O.Oxunjonov	-	Tuman hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari
5	I.Amonov	-	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i
6	S.Haydarov	-	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
7	V.Quvandiqov	-	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining Mahallalar va ochiq byudjet masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi
8	U.Suvonov	-	Tuman Adliya bo'limi boshlig'i
9	Sh.Ismatov (kelishuv asosida)	-	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi vakili